

XITOIY XALQ RESPUBLIKASIDA "MADANIY INQILOB"GA ZAMONAVIY BAHOLAR

Toshmatov Shohijahon Abduvohidjon o'g'li

"Magnit Korean school" Tarix fani o'qituvchisi va menejeri

"Madaniy inqilob" (1966–1976) Xitoy tarixida eng ziddiyatli, murakkab va fojiali davrlardan biri sifatida baholanadi. Bu jarayon mamlakatni chuqur siyosiy, iqtisodiy va madaniy inqirozlarga olib keldi. Davlat boshqaruvi tizimining izdan chiqishi, millionlab ziyolilarning ta'qib qilinishi, ta'lim va ilm-fan sohasining keskin tanazzulga yuz tutishi, ishlab chiqarishning pasayishi – bularning barchasi jamiyat hayotini izdan chiqargan asosiy omillar bo'ldi. Shu bilan birga, keng xalq ommasi, ayniqsa yoshlar qatlamining siyosiy hayotga jalb qilinishi, mafkuraviy jarayonlarda faol ishtirok etishi, Xitoy jamiyatida yangicha ijtimoiy-siyosiy ong shakllanishiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi.

Sovet tarixshunosligida "madaniy inqilob" hodisasi, umuman olganda, Mao Szedunning butun siyosiy faoliyati singari, salbiy talqin etilgan. Ayniqsa, ushbu davrda Xitoyda olib borilgan keskin antisovetizm siyosatiga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmida SSSR va XXR o'rtasidagi murakkab siyosiy munosabatlar sovet olimlarining tadqiqotlarida ham keng yoritilgan.

S.L. Tixvinskiy, N.B. Bugrova, G.G. Kadimov singari tadqiqotchilar o'z asarlarida "madaniy inqilob" davrida va Mao Szedun vafotidan keyingi yillarda sovet-xitoy munosabatlarining rivojlanishini tahlil qilganlar. Ularning qarashlarida ikki davlat o'rtasidagi ziddiyatlarda asosiy mas'uliyat Xitoy tomoniga yuklangan. Xususan, XXR hukumati tomonidan SSSRga nisbatan ilgari surilgan hududiy da'volar "nohaq shartnomalar" bilan asoslangan bo'lib, bu da'volar sovet tarixshunosligida siyosiy manipulyatsiya sifatida talqin qilingan. Shu bilan birga, Xitoydagi propagandada Sovet Ittifoqi "Shimoldan kelayotgan asosiy xavf" sifatida tasvirlangan va bu g'oya mamlakatdagi harbiylashtirish siyosatini asoslash vositasiga aylangan.

1970-yillarning boshlariga kelib, XXR rahbariyati SSSRni hatto imperialistik davlatlardan ham ko'ra xavfliroq dushman sifatida talqin qila boshladi. Natijada, mamlakat miqyosida "urushga tayyorgarlik" keng ko'lamda olib borildi. Sovet tadqiqotchilari esa mazkur ayblovlarni asossiz va uydirma deya baholaganlar.

1981-yilda chop etilgan "Xitoyning gegemonistik siyosati – Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi xalqlari uchun tahdid" nomli kollektiv to'plamda 27 nafar sovet muallifining maqolalari jamlangan bo'lib, unda XXRning AQSh bilan yaqinlashuvi boshqa sotsialistik mamlakatlar manfaatlariga qarshi qaratilgan siyosiy yo'nalish sifatida baholangan. Mazkur asarda ilgari surilgan asosiy g'oya shundan iboratki, maoizm mohiyatan marksizm-leninizm emas, balki xitoycha millatchilikning "buyuk xan shovinizmi"ning mafkuraviy shakli bo'lib, uni global miqyosda yoyishga urinish sifatida talqin etilgan.

Sovet tarixshunosligida "madaniy inqilob"ning muhim oqibatlaridan biri sifatida Mao Szedunning siyosiy kursidagi tub burilish qayd etiladi. U sovetcha sotsializm modelidan butunlay voz kechib, jamiyatni shaxsiy qarashlari va siyosiy g'oyalari asosida qayta shakllantirishga intildi. Natijada, Marx, Engels va Lenin asarlari siyosiy maydondan siqib

chiqarilib, Mao Szedunning "qizil kitobchasi" yagona mafkuraviy manba sifatida targ'ib qilindi.

Rossiyalik zamonaviy tadqiqotchilar baholashda nisbatan muvozanatli pozitsiyani egallaganlar. Masalan, A. Vorontsov nafaqat Xitoyning, balki SSSRning XXRga nisbatan siyosatini ham tanqidiy tahlil qiladi. Yangi tadqiqotlarda Mao Szedunning siyosiy faoliyati va uning atrofidagi shaxsiy aloqalar ham kengroq yoritila boshlagan. Jumladan, "madaniy inqilob"ni boshlab bergan maqola muallifi Yao Venyuanning Mao Szedun bilan qarindoshlik rishtalari borligi qayd etiladi.

Zamonaviy rus va xorijiy tarixshunoslikda "madaniy inqilob"ning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari keng tahlil qilingan.

Iqtisodiy oqibatlar:

1. 1967-yilda sanoat ishlab chiqarishi 20 foizga qisqardi;
2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida o'sish to'xtadi;
3. Po'lat eritish, ko'mir qazib olish, elektr energiyasi ishlab chiqarish sezilarli darajada kamaydi;
4. Zavod va fabrikalarda harbiy intizom joriy qilinishi ishlab chiqarish jarayonini izdan chiqardi.

Ijtimoiy oqibatlar:

1. 10 milliondan ortiq yoshlar qishloqlarga surgun qilindi;
2. 5 millionga yaqin partiya a'zosi repressiyaga uchradi;
3. Minglab ziyolilar, o'qituvchilar va professorlar ta'qib qilindi, ularning ko'pchiligi qatl etildi yoki o'z joniga qasd qildi.

Xorijiy tadqiqotchilar bahosi:

1. Ann Tarston "madaniy inqilob"ni Xitoyning ma'naviy va madaniy qadriyatlarini yo'qotish jarayoni sifatida baholaydi;
2. Filipp Short Mao Szedunni bir tomondan shafqatsiz despot, boshqa tomondan esa Xitoyni jahon siyosiy maydoniga olib chiqqan arbob sifatida talqin etadi;
3. Genri Kissindjer "madaniy inqilob" Xitoy jamiyatining axloqiy va siyosiy poydevorini izdan chiqarganini ta'kidlaydi;
4. "Kommunizmning qora kitobi" mualliflari (S. Kurtoa, K. Bartoshek, A. Pachkovskiy va boshqalar) esa Mao Szedunni XX asrning eng qonli siyosiy yetakchilaridan biri sifatida baholaydilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mazkur davrning fojiali oqibatlari bilan bir qatorda, u Xitoy uchun muayyan tarixiy saboq ham bo'ldi. Bir tomondan, mamlakat rahbariyati jamiyatni faqat mafkura va siyosiy shiorlar orqali boshqarish qanchalik og'ir oqibatlarga olib kelishini chuqur anglab yetdi.

Ikkinchi tomondan, "madaniy inqilob"ning yakunlanishi Xitoyning keyingi taraqqiyot yo'lini belgilab berdi: Deng Syaopin boshchiligida 1978-yildan boshlangan islohot va ochiqlik siyosati aynan o'sha og'ir tajribadan keyin shakllangan qarashlar zaminida paydo bo'ldi.

Shunday qilib, "madaniy inqilob" nafaqat Xitoy jamiyatini larzaga solgan fojiali tarixiy hodisa, balki zamonaviy Xitoyning shakllanishida muhim burilish nuqtasi bo'lib xizmat qilgan.

Bu davrning achchiq saboqlari mamlakatni o'z xatolarini anglab, keyingi bosqichlarda yanada ehtiyotkor, amaliy va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini tanlashga undadi. Natijada Xitoy keyingi o'n yilliklarda kuchli, mustaqil va global maydonda o'z o'rnini topgan davlat sifatida shakllandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Внешняя политика и дипломатия зарубежных стран / Н. Б. Бугрова, Г. Г. Кадымов, В. А. Кривцов и др. – М.: Международные отношения, 1981. – 352 с.
2. Гегемонистская политика Китая – угроза народам Азии, Африки и Латинской Америки / Отв. ред. М. И. Сладковский. – М.: Политиздат, 1981. – 288 с.
3. Борисов, О. Б. Партнерство империализма и пекинского гегемонизма – новое опасное явление в мировой политике. – М.: Политиздат, 1981. – 64 с.
4. Китай после культурной революции / Под ред. В. В. Житняка. – М.: Наука, 1979. – 302 с.
5. 40 лет КНР. – М.: Наука, Главная редакция восточной литературы, 1989. – 496 с.
6. Шорт, Ф. Мао Цзэдун / Пер. с англ. Ю. Г. Кирьяка. – М.: ООО «Издательство АСТ», 2001. – 816 с.
7. Киссинджер, Г. О Китае / Пер. с англ. В. Н. Верченко. – М.: Астрель, 2013. – 624 с.
8. Черная книга коммунизма. Преступления, террор, репрессии / С. Куртуа, Н. Верт, Ж. Панне и др. – М.: Три века истории, 2001. – 864 с.
9. КНР: политическая система. 100 вопросов и 100 ответов / Под ред. Ю. Арсентьева. – М.: Мысль, 1990. – 238 с.